

2021– yilning yanvar–sentabr oylarida Buxoro viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021–yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 21 238,6 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 21 032,1 mlrd. soʻmni (105,4 %), oʻrmon xoʻjaligi – 95,8 mlrd. soʻmni (101,6 %), baliqchilik xoʻjaligi – 110,7 mlrd. soʻmni (121,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 9,6 % ni tashkil etdi.





Buxoro viloyatining qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining oʻsish surʻati, % da

01



Dehqonchilik
va chorvachilik,
ovchilik va ushbu
sohalarda koʻrsatilgan
xizmatlar – 105,4 %

02



Oʻrmon xoʻjaligi
101,6 %

03



Baliqchilik xoʻjaligi
121,5 %

2021- yilning yanvar – sentabr oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda 105,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 105,4 % ni, oʻrmon xoʻjaligi – 101,6 % ni, baliqchilik xoʻjaligi – 121,5 % ni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021– yilning yanvar-sentabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga asosan quyidagi mahsulotlarning 2020– yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.

✓ Pilla	— 136,1 %
✓ Qorako'l teri	— 104,7 %
✓ Go'sht (tirik vaznda)	— 101,2 %
✓ Oziqbop poliz ekinlari	— 101,9 %
✓ Uzum	— 112,3 %
✓ Paxta	— 519,8 %
✓ Sabzavotlar	— 101,5 %
✓ Ovlangan baliq	— 121,0 %

**Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi**

Dehqonchilik
va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda
ko'rsatilgan xizmatlar

99,0 %

O'rmon xo'jaligi

0,5 %


Baliqchilik xo'jaligi

0,5 %

2021- yilning yanvar – sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 99,0 % I - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning (2020- yilning yanvar – sentabr oylarida 99,1 %), 0,5 % I - o'rmon xo'jaligi (0,5 %), 0,5 % i baliqchilik xo'jaligi (0,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.



Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2021– yilning yanvar–sentabr oylarida, tuman va shaharlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jondor (2 529,0 mlrd. so'm) va Buxoro (2 488,0 mlrd. so'm) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (10,0 mlrd. so'm), Buxoro shahri (256,0 mlrd. so'm) va Qorovulbozor tumani (628,0 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (105,5 %) yuqori o'sish sur'atlari Shofirkon (108,8 %), Olot (107,6 %), Qorako'l (106,7 %) va Peshku (105,5 %) tumanlarida kuzatildi. Kogon shahrida (100,5 %), Buxoro shahrida (100,3 %), Qorovulbozor (101,1 %), Buxoro (103,8 %), Kogon (104,8 %), Romitan (105,0 %), Vobkent (105,3 %) va Jondor (105,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021–yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 20 822.4,8 mlrd. so'mni yoki 2020–yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 10 804,6 mlrd. so'mni (109,8 %), chorvachilik mahsulotlari – 10 017,8 mlrd. so'mni (101,1 %) tashkil qildi.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi, (% da)



51,9 %

Dehqonchilik mahsulotlari




48,1 %

Chorvachilik mahsulotlari



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi, (% da)



Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda yuqori ulushga ega hududlar



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi
mahsulotlarining xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi****70,9 %****Dehqon
(shaxsiy yordamchi)
xo'jaliklari****26,7 %****Fermer
xo'jaliklari****2,4 %****Qishloq xo'jaligi
faoliyatini amalga
oshiruvchi tashkilotlar**

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 70,9 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,7 % i – fermer xo'jaliklariga, 2,4 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


**Ma'lumot uchun:**

Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining ulushi quyidagicha:

- ✓ Go'sht (tirik vaznda) — 94,2 %
- ✓ Sog'ib olingan sut — 94,2 %
- ✓ Kartoshka — 92,2 %
- ✓ Sabzavotlar — 82,1 %



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, (% da)



2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida (58,1%), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Kogon shahrida (88,2%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kogon shahrida (11,8%) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Kogon tumanida (16,0%), dehqon

(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor tumanida (39,1%), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Buxoro tumanida (0,5%) qayd etildi.




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab
chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi**

Dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik mahsulotlari



-  Fermer xo'jaliklari
-  Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
-  Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




Dehqonchilik


2021– yilning yanvar – sentabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 10 804,6 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 51,9 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar


Hajmi, ming. t.



Oʻsish surʻati



Yetishtirilgan mahsulotning
xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi



Fermer xoʻjaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari

Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 483,5 ming. t. donli ekinlar (2020– yilning yanvar – sentabriga nisbatan 0,0 % ga koʻp) yetishtirildi. Jami don yetishtirish koʻrsatkichlarini xoʻjalik toifalari boʻyicha tahlili, jami don yetishtirish umumiy hajmidan 81,3 % i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatdi.



**Hududlar bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish**

hajmi, ming tonna

Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi



Yuqori ulushga ega hududlar




Romitan tumani **11,9 %**
Jondor tumani **10,2 %**
G'ijduvon tumani **10,0 %**
Shofirkon tumani **9,8 %**

Past ulushga ega hududlar

Kogon shahri **0,01 %**
Buxoro shahri **0,2 %**
Kogon tumani **5,6 %**
Qorovulbozor tumani **7,8 %**



Sabzavotlar

Hajmi, ming t.**O'sish sur'ati****Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi****Fermer xo'jaliklari****Dehqon (shaxsiy
yordamchi) xo'jaliklari****Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**


2021– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 653,2 ming t. sabzavotlar (2020– yilning yanvar – sentabriga nisbatan 1,5 % ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 82,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish**




hajmi, ming tonna

Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi



Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Buxoro tumani 13,3 %	Kogon shahri 0,1 %
Jondor tumani 11,9 %	Qorovulbozor tumani 2,7 %
G'ijduvon tumani 11,7 %	Kogon tumani 3,6 %
Qorako'l tumani 11,4 %	Buxoro shahri 4,1 %


Kartoshka

Hajmi, ming. t.**O'sish sur'ati****Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi****Fermer xo'jaliklari****Dehqon (shaxsiy
yordamchi) xo'jaliklari****Qishloq xo'jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2021– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 212,0 ming. t. kartoshka (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 0,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 92,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'yicha
kartoshka yetishtirish**



Yuqori ulushga ega hududlar

Buxoro tumani **15,4 %**

Jondor tumani **14,0 %**

Peshku tumani **12,1 %**

G'ijduvon tumani **9,6 %**

Past ulushga ega hududlar

Kogon shahri **0,01 %**


Buxoro shahri **0,5 %**

Qorovulbozor tumani **0,8 %**


Qorako'l tumani **6,2 %**



Poliz



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 118,1 ming t. poliz (2020– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 1,9 % ga ko'p) ekinlari yetishtirildi. Poliz ekinlari yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, poliz ekinlari yetishtirish umumiy hajmidan 79,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'yicha
poliz ekinlari yetishtirish**

hajmi, ming tonna


Viloyatning umumiy hajmiga nisbatan ulushi




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Qorovulbozor tumani 13,3 %	Buxoro shahri 0,2 %
Peshku tumani 12,0 %	Kogon tumani 1,8 %
Jondor tumani 11,9 %	Vobkent tumani 4,4 %
Olot tumani 11,1 %	Shofirkon tumani 5,0 %

Meva va rezavorlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 189,8 ming t. meva va rezavorlar (2020–yilning yanvar – sentabriga nisbatan 11,7 % ga kam) yetishtirildi. Meva va rezavorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, meva va rezavorlar yetishtirish umumiy hajmidan 60,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'ycha
meva va rezavorlar
yetishtirish**



Yuqori ulushga ega hududlar

Vobkent tumani **16,7 %**
 Jondor tumani **14,1 %**
 Buxoro tumani **13,1 %**
 Peshku tumani **12,1 %**


Past ulushga ega hududlar

Buxoro shahri **0,7 %**
 Qorovulbozor tumani **1,5 %**
 Kogon tumani **2,3 %**
 Olot tumani **4,0 %**




Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



**Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2021–yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 178,7 ming t. uzum (2020–yilning yanvar – sentabriga nisbatan 12,3 % ga ko'p) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlili, uzum yetishtirish umumiy hajmidan 54,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.



**Hududlar bo'yicha
uzum yetishtirish**




Yuqori ulushga ega hududlar		Past ulushga ega hududlar	
Buxoro tumani	24,0 %	Buxoro shahri	0,7 %
Shofirkon tumani	12,8 %	Qorovulbozor tumani	0,8 %
Jondor tumani	12,0 %	Kogon tumani	2,2 %
Vobkent tumani	10,3 %	Olot tumani	3,9 %



Chorvachilik

2021– yilning yanvar – sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 10 017,8 mlrd. soʻmni yoki 2020– yilning mos davriga nisbatan 101,1 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 48,1 % ni tashkil etdi.



Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.


2021– yilning yanvar – sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 192,7 ming t. go'sht (2020– yilning yanvar – sentabriga nisbatan 1,2 % ga ko'p), 716,3 ming t. sut (1,0 % ga ko'p), 327,5 mln. dona tuxum (0,5 % ga ko'p), 2,9 ming t. jun (1,1 % ga ko'p), 452,1 ming dona qorako'l teri (4,7 % ga ko'p) yetishtirildi va 6 ,1 t. baliq (21,0 % ga ko'p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




2021- yilning yanvar - sentabr oylarida go'sht yetishtirish to'g'risidagi ma'lumotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil natijalariga asosan, go'sht yetishtirishning eng katta hajmi 181,5 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 94,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2020- yilning mos davri bilan solishtirganda, 2021- yilda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 0,4 % va fermer xo'jaliklarda 2,8 % o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish



Yuqori ulushga ega hududlar		Past ulushga ega hududlar	
G'ijduvon tumani	12,2 %	Kogon shahri	0,1 %
Jondor tumani	12,1 %	Buxoro shahri	1,2 %
Qorako'l tumani	10,9 %	Qorovulbozor tumani	2,7 %
Buxoro tumani	10,3 %	Peshku tumani	7,8 %




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Xo'jalik toifalari orasida sut yetishtirishning eng katta hajmi 674,6 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 94,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar- sentabr oylari yakunlari bo'yicha eng kam hajm 2,2 ming t. yoki umumiy yetishtirish hajmidan 0,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda kuzatildi.

2020- yilga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida 14,3 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 87,1 % o'sish kuzatildi.



**Hududlar bo'yicha
sut yetishtirish**



Yuqori ulushga ega hududlar		Past ulushga ega hududlar	
Buxoro tumani	12,4 %	Kogon shahri	0,0 %
G'ijduvon tumani	11,3 %	Buxoro shahri	0,6 %
Shofirkon tumani	11,3 %	Qorovulbozor tumani	1,2 %
Qorako'l tumani	10,9 %	Kogon tumani	5,4 %



Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Boshqa toifadagi xo'jaliklarga nisbatan taqqoslanganda, tuxum yetishtirishning eng katta hajmi 199,9 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 61,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar- sentabr oylarida, yetishtirishning eng kam hajmi 57,6 mln. dona yoki umumiy yetishtirish hajmidan 17,6 % i fermer xo'jaliklarida kuzatildi.


2020- yilga nisbatan, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 0,3 % va fermer xo'jaliklarda 24,4 % o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha tuxum yetishtirish

hajmi, mln. dona


Viloyatning umumiy hajmiga
nisbatan ulushi




Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Jondor tumani 19,8 %	Kogon shahri 0,1 %
Kogon tumani 16,1 %	Buxoro shahri 2,0 %
G'ijduvon tumani 13,2 %	Qorovulbozor tumani 2,1 %
Qorako'l tumani 12,5 %	Peshku tumani 4,2 %



Baliq



Ovlangan baliqning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Baliq ovlash ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi 4 796 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 78,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda qayd etildi.

2021- yilning yanvar - sentabr oylari natijalari bo'yicha baliq ovlashning eng kam hajmi 282,0 t. yoki umumiy ovlangan hajmidan 4,6 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida kuzatildi.

2020- yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 22,3 %, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 4,0 % va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 21,9 % o'sish kuzatildi.



Hududlar bo'yicha ovlangan baliqlar



Yuqori ulushga ega hududlar	Past ulushga ega hududlar
Shofirkon tumani 38,3 %	Vobkent tumani 1,2 %
Buxoro tumani 21,4%	Kogon tumani 1,7 %
Qorovulbozor tumani 7,0 %	Qorako'l tumani 2,9 %
Olot tumani 6,9 %	Qorako'l tumani 2,9 %





Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2021– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,0 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 12,8 % i fermer xo'jaliklariga, 80,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiy sonidan 31,1 % i fermer xo'jaliklariga, 56,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 12,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 19,3 % i fermer xo'jaliklariga, 55,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 268,5 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 47,5 mingtaga (3,9 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzaitildi.



**Hududlar bo'yicha
yirik shoxli qoramollarning
umumiy bosh soni, ming bosh**



Viloyat bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 417,7 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 1,5 mingtaga (3,9 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O‘sish sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 93,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



Hududlar bo'yicha
sigirlarning umumiy
bosh soni, ming bosh



Viloyat bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soniga
nisbatan hududlarning ulushi




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 237,8 mingtaga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 65,8 mingtaga (3,0 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘shish sur‘ati



**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 80,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



**Hududlar bo'yicha
qo'y va echkilarning umumiy
bosh soni, ming bosh**



Viloyat bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soniga nisbatan hududlarning ulushi




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 6 636 taga yetdi.


2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 878 taga (15,2 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O‘sish sur‘ati



Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi



Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 56,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



**Hududlar bo'yicha
otlarning umumiy
bosh soni, bosh**



**ViLOYAT bo'yicha otlarning umumiy bosh soniga
nisbatan hududlarning ulushi**




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 5 278,3 mingtaga yetdi.

2020– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 314,9 mingtaga (6,3 %) ko‘paydi.


Parrandalar




**Jami bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




2021– yilning 1 – oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 55,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



Hududlar bo'yicha
parrandalarning umumiy
bosh soni, ming bosh



Viloyat bo'yicha parrandalarning umumiy bosh
soniga nisbatan hududlarning ulushi



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi



• 65- 223-44-45
• 65- 223-72-59